


2025-yil 13-noyabr

## **SADRIDDIN AYNIY**



**(1878-1954)**

Bolaligi Sadriiddin 1878-yilning 15-aprelida Buxoro amirligining G'ijduvon tumanidagi Sektare qishlog'ida Saidmurodxo'ja va Zevaroy xonadonida dunyoga kelgan.

Ma'lumoti Saidmurodxo'ja o'g'li Sadriiddin 6 yoshga to'lganida uni qishloq maktabiga boshlang'ich ta'lim olishi uchun joylashtiradi. Maktabni tamomlagan Sadriiddin 12 yoshida Buxoroga kelib, o'n yil davomida Mir Arab (1890-1891), Olimjon (1892-1893), Badalbek (1894-1896), Hoji Zohid (1896-1899) va Ko'kaldosh (1899-1900) madrasalarida tahsil olgan. Madrasalarda o'qib yurgan paytlari taraqqiyparvar yoshlardan Hayrat va Abduqodir Maxdumlar bilan tanishadi. Bu vaqtda Hayrat Hindistonda chiqadigan "Hablul matn" va Misrda chop etiladigan "Chehranoma" gazetasining, Abduqodir Maxdum esa "Tarjimon" gazetasining o'quvchilaridan edilar. Sadriiddin Ayniyda ham gazetalarni o'qishga qiziqish uyg'onib, do'stlari bilan birgalikda gazetalar bilan tanishib, dunyoda sodir bo'layotgan voqealar hamda o'zgarishlardan xabardor bo'lib borgan. Shuningdek, Ahmad Donish va ozarbayjon yozuvchisi Hoji Marog'iyning asarlarida aks etgan ilg'or ma'rifatparvar g'oyalar ham Sadriiddin Ayniy hamda uning do'stlari dunyoqarashida o'zgarishlar yasaydi. Natijada buxorolik bir guruh yoshlar jamiyatni isloh qilish maqsadida jipslashadilar va jadid maktablari tashabbuskorlariga aylanadilar.

Faoliyati Abduqodir Shakuriy maktabidan o'rnak olib, Ayniy, Munzim, Ahmadjon Hamdiy va Hamidxo'ja Mehriy kabi taraqqiyparvarlar 1908-yil 23-oktabrda Buxoro shahrining Darvozai Sallohxona guzarida joylashgan Mirzo Abdulvohid Munzim uyida forsiy (tojik) tilda ta'lim beruvchi jadid maktabi ochadilar. Bu paytda Ayniy Buxoro shahrida faoliyat ko'rsatayotgan tatar ziyolisi Nizom Sobitdiy maktabida muavin vazifasida ishlar va maktab muallimi Abdurahmon Sa'diy muntazam o'qib boradigan Turkiyada chiqadigan "Sirotul mustaqim" ("To'g'ri yo'l") nomli ijtimoiy-diniy, ilmiy-badiiy jurnal bilan tanishib borardi.

Maktab asoschilari yangi maktabda samarali o'qitishni tashkil etish uchun darslik, qo'llanma va adabiyotlarga zarurat mavjudligini inobatga olib, 1909-yil mart oyida "Shirkati Buxoroyi sharif" ("Buxoroyi sharif shirkati")ga asos soladilar. Ushbu shirkatning a'zolari 9 kishi: Abdulvohid Munzim, Sadriddin Ayniy, Ahmadjon Maxdum (Hamdiy), Aminjon Maxdum, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev, Hamidxo'ja Mehriy, Mulla Nizom Sobitiy, Abdurahmon Sa'diy va Mirzo Abdulqodir Muhiddinovlardan iborat bo'lgan. Sadriddin Ayniy "Buxoroyi sharif shirkati" muassisligida 1909-yilda jadid maktablari uchun yozgan "Tartil ul-Qur'on" ("Qur'oni Karimni o'qish va talaffuz qilish qoidalarini o'rganishga bag'ishlangan kitob"), "Zaruriyoti diniya" ("Dinning zarurati") va "Tahsib us-sibyon" ("Bolalar tarbiyasi") nomli kitoblarni nashr ettiradi. Natijada maktab o'quvchilari darslik va qo'llanmalar bilan ta'minlanadi.

Tez fursatda xalq orasida obro' qozongan Sadriddin Ayniy va Abduvohid Munzim maktabi Buxoroning mutaassib ulamolari qarshiligiga uchraydi. Hukumatning aralashuvi bilan 1909-yili maktab faoliyati to'xtatiladi. Bunday vaziyatda jadidlar maorifni isloh qilishga oid dasturlarining keyingi bosqichlarini amalga oshirishga kirishadilar. Sadriddin Ayniy va Abduvohid Munzimlar 1909-yilda "Tarbiyayi atfol" jamiyatini tuzish ishlarida bosh-qosh bo'ladilar. Jamiyat tarkibiga 28 nafar a'zo kiritilgan bo'lib, ularning 14 nafari rais, qozi, mudarris hamda mulla va mullozodalardan iborat bo'lgan.

"Tarbiya atfol" jamiyati o'z faoliyati davrida quyidagi ishlarni amalga oshirgan:

Birinchidan, ilmga chanqoq yoshlarga har jihatdan: ham iqtisodiy, ham ma'naviy yordam ko'rsatib, Turkiya hamda Rossiyaning Qozon, Ufa, Bog'chasaroy shaharlariga o'quvchilar yubordi;

Ikkinchidan, Turkiya, Eron hamda Rossiya musulmon shaharlarida nashr qilingan matbuot namunalari bilan buxoroliklarni tanishtirib borishga kirishdi. Buxorodagi Rossiya siyosiy agentligining har qanday ta'qib va to'siqlariga qaramay, jamiyatning say-harakati bilan bunday nashrlar amirlikda ham keng tarqala boshladi;

Uchinchidan, "Tarbiyayi atfol" jamiyati a'zolari ham o'rinsiz sarf-xarajatlarga, to'y va ma'rakalarga sarf qilinadigan katta-katta xarajatlarga, isrofgarchiliklarga qarshi chiqdilar. Bunday mablag'larni farzandlar tarbiyasiga, ularni chet ellarda o'qitish uchun sarf qilishga da'vat etdilar;

To'rtinchidan, jamiyatining tashabbusi bilan 1912-yil 11-martdan Yangi Buxoro (Kogon)da fors-tojik tilida "Buxoroyi sharif" gazetasi chop etila boshlandi. 1912-yilning 11-martidan - 1913-yil 12-yanvargacha 153 soni chiqdi.

1910-1917-yillarda faoliyat olib borgan jamiyat ma'rifatparvarlik ishlari, yangi usul maktablarini tashkil etish, ta'lim-tarbiya tizimini isloh etish uchun kurashgan bo'lsa, 1917-yilga kelib siyosiy tashkilot tusiga kirdi.

1917-yil fevralda Rossiyada amalga oshirilgan davlat to'ntarishi Turkiston mintaqasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bu davrda Buxoro jadidlarining qarashlarida bo'linish sodir bo'lib, o'ng va so'l guruhga ajraldilar. Bu haqda Ayniy: "Fevral inqilobidan keyin jamiyatimiz uch marta yig'ildi. Bu uch yig'ilish ham janjal bilan o'tdi. Men taklif qildimki, jamiyat maxfiy holda tursin, lekin hozirgi talabga muvofiq ma'lum bir aniq dastur tuzib, a'zolarining sonini ko'paytirish kerak. Jamiyat a'zolari ochiq va yarim ochiq harakatlarga qatnashavermasinlar. Lekin yo'l-yo'riqlarni jamiyatdan olsinlar, men dehqonlar orasida tashviqot o'tkazish masalalarini qo'ydim va modomiki, islohotning bir qismi yer solig'ining islohoti ekan, bu to'g'risida dehqonlarni tayyorlash kerak, - dedim", deb yozadi.

Rossiyada demokratik tuzum o'rnatish borasidagi harakatlar va islohotlarga ehtiyoj kuchayib borayotganini anglagan Buxoro amiri Sayyid Olimxon 1917-yil 7-aprelda islohot farmonini imzolaydi. Shu munosabat bilan Yosh buxoroliklar shaharning Bozorgul guzarida joylashgan Halim Ashurov uyida farmonni muhokama qilish uchun majlis chaqiradilar. Bu yig'inda samarqandlik jadidlar mufti Mahmudxo'ja Behbudiy va Qori Haydarbeklar ham qatnashadilar.

Sadriddin Ayniy, Abduvohid Munzim, Fazliddin Maxdum, Muhiddin Rif'at, Mirzashoh, Mirza Izatullo, va Hamidxo'ja Mehriylar namoyish o'tkazishga qarshi chiqadilar. Bularning fikri Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan ham qo'llab-quvvatlanadi. Ammo Abdurauf Fitrat boshchiligidagi jadidlar bu tadbirni amalga oshirishga qaror qiladilar va 1917-yil 8-aprelda amirga o'z tashakkurlarini bildirish uchun yig'iladilar.

Bundan xabar topgan amir poytaxtda tartibsizliklar keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan bu namoyishni to'xtatish, uning ishtirokchilarini qo'lga olish va jazolash bo'yicha buyruq beradi. Natijada jadidlarning taniqli namoyandalari Ziyovuddin Maxdum, Ahmad Naim, Mirzo Abulfayoz, Mirzo Ahmad, Mirzo Nazrullo G'affurzoda, Mirbobobo Muhsinzoda va Abdurasullar, shuningdek, jadidlarni qo'llab-quvvatlab turgan hukumat arboblardan Mirzo Sahbo Vobkandiy, Hoji Dodhoh va Mirzo Abdullolar qamoqqa olinadi. Namoyishda ishtirok etmagan bo'lsada, 9 aprel kuni Sadridin Ayniy ham hibsga olinadi va 75 darra kaltaklanadi. Muvaqqat hukumat aralashuvi bilan tutqinlikdan qutulgan Sadridin Kogondagi shifoxonada 52 kun davolanadi va tuzalgach, Samarqandga ko'chib o'tadi. Ayniyga Abduqodir Shakuriy o'z uyidan joy bergan va uni Saidrizo Alizoda, Siddiqiy Ajziy, Saidahmad Vasliy, Vadud Mahmud kabi ma'rifatparvarlar bilan tanishtirgan. Sadridin Ayniy shu davrdan o'zini siyosatdan butunlay uzoq tutib, ilmiy ijodga kirishgan. Biroz vaqt o'tgach, Vadud Mahmudning singlisiga uylangan.

1918-yil martda Turkiston Xalq Komissarlari soveti raisi Fyodor Kolesovning Buxoro amirligiga hujumi davrida Fayzulla Xo'jayev va maslakdoshlarining bosqinchilar tomonida turgani Amir Olimxonning nafratiga sabab bo'ladi. Ikki o'rtadagi urash tugagach, amir Buxoro jadidlarini vatanga xiyonat qilganlikda ayblab, jismonan yo'q qilishga kirishadi. Natijada Yosh buxoroliklar amir ta'qibidan qochib, Turkiston o'lkasining turli shaharlariga muhojirlikka ketadilar.

Amir Samarqandga ham jadidlarni qo'lga olish uchun o'z odamlarini yuborishi Ayniyni ham xavotirga solgan va Toshkentga ko'chib o'tishga majbur bo'lgan. U bu haqda: "Men bu vaqtda Samarqandda bo'lib, hanuzgacha ahvolim yaxshi emas edi, quvvatim yo'q edi. Kolesov voqealaridan keyin amir hukumati Samarqandga ham o'z ayg'oqchilarini yubordi. Samarqand mening yashashim uchun xavfli joy bo'lib qoldi. Men 1918-yil 22-aprelda Samarqanddan Toshkentga ko'chib bu yerda olti oy qolib ketdim", yozadi. Ayniy Toshkentda bo'lgan vaqtda shahardagi jadid maktablariga borib, ularning o'qituvchilari bilan muloqot qilgan, shahardagi tarixiy yodgorliklar bilan tanishgan. Keyinchalik "Mehnatkashlar tovushi" gazetasida ko'rgan-kechirganlari asosida yozilgan "Toshkent xotiralari" maqolasini e'lon qilgan.

1918-yil 22-oktabrda Toshkentdan Samarqandga qaytgan Sadridin maktabda o'zbek-tojik tili adabiyoti va tarixidan dars bera boshlaydi. 1919 yilda Samarqand maorif bo'limida ma'sul lavozimda ish boshlaydi.

1920-yil iyunda Yosh buxoroliklar partiyasi yetakchisi Fayzulla Xo'jayevning taklifiga binoan Sadridin Ayniy Toshkentga chaqirib olinadi. Bu haqda Ayniy "Qisqacha tarjimai holim" asarida: "... Buxoro ommasi Rossiya va Turkiston bolsheviklaridan yordam talab qilar edi. Men 1920-yilning iyunida Buxoro Kommunistlari tashkiloti tomonidan Toshkentga chaqirildim. Bu yerda bir oy turib, mening qalamimni talab etgan loyiha, bayonot va boshqa narsalarni ikki tilda: tojik va o'zbek tillarida yozib berdim", deb qayd etadi.

1920-yil sentabrda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzilgach, Sadridin Ayniy shu yilning 17-oktabrida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi Maorif Noziri Qori Yo'ldosh Po'latov nomiga xat yozib, unda Buxoroda yangi usuldagi maktablar tashkil qilish bo'yicha o'z fikr va mulohazalarini bayon qiladi. Ayniy maktablarni ochishda shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymaslik; o'quvchilarning ota-onalari orasida juda ehtiyotkorlik bilan tushuntirish ishlarini olib borish; qabul qilinadigan o'quvchilarning son va sifatiga alohida e'tibor berish; maktabda dars beruvchi muallimlarni tayyorlash uchun Moskva, Qozon, Orenburg, Boku, Toshkent va boshqa shaharlardan tajribali o'qituvchilarni taklif etish; muallimlar tayyorlash kurslariga 30 yoshgacha bo'lgan iste'dodli, aqlli kishilarni jalb qilish bo'yicha o'z takliflarini taqdim qilgan. Ayniy darsliklar masalasida ham alohida to'xtalib: "Turkistonda yangidan nashr qilingan kitoblar qo'lga kiritmoq ila barobar qanoat qilaturgan bir darajada til va imlo jihatidan Buxoro o'zbeklariga muvofiq emasdir, xususan so'z ta'limi jihatdan ham ko'p mushkilotlarga uchrash mumkin. Chunki, ko'pchilik nashr qilaturgan darsliklar usmonli turklar, tatarlar va chig'atoy shevalari asosida yozilgan bo'lib, hatto turkistonlik mahalliy o'quvchi bolalar uchun ham bu kitoblarning tili og'irlik qiladi", deb yozadi maktubida.

1921-1923-yillarda Ayniy Buxoro Xalq Sovet Respublikasining Samarqanddagi konsulxonasida maslahatchi bo'lib ishlaydi. 1923-yilda BXS Rning Samarqanddagi konsulxonasi yopilgach, Ayniy

1925-yilga qadar Samarqanddagi Buxgostorg (Buxoro savdo uyi)da mudir bo'lib ishlaydi. Ayniy 1926-yilning 15-iyunida Samarqandda ta'sis bo'lgan Tojikiston davlat nashriyotiga muharrir, ilmiy va adabiy konsultant bo'lib ishga kiradi va 1933-yilning sentabrigacha shu lavozimda ishlaydi. 1927-yilda Samarqandda Oliy pedagogika instituti (hozirgi SamDU) ta'sis etilib, Abdurauf Fitrat va Sadriddin Ayniy ushbu oliygohda o'zbek mumtoz adabiyoti kafedrasini tashkil etilishining tashabbuskorlari bo'lganlar.

Sadriddin Ayniy 1936-1938-yillarda o'n besh ming so'zdan iborat tojik adabiy tili lug'atini tuzadi. 1939-yilda Dushanbe shahar Sovetiga deputat etib saylanadi. 1943-yil 4-noyabrda O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi tuzilgach, akademik etib saylangan.

Sadriddin Ayniy 1946-yildan 1950-yilgacha SamDUning o'zbek adabiyoti kafedrasiga mudirlik qilgan. 1951-yilda Tojikiston Fanlar akademiyasi tashkil etilgach, uning birinchi prezidenti etib saylangan.

Ilmiy-adabiy merosi 1890-1895-yillarda "Sifli", "Muhtojiy" va "Jununiy" kabi taxalluslar bilan she'rlar mashq qilgan Sadriddin 1896-yildan "Ayniy" taxallusi bilan ijod qilgan.

1919-yili boshlang'ich sinflar uchun "Soli naxustin" ("Birinchiyil") alifbe kitobini yozadi. 1918-1920-yillarda Samarqandda tojik tilida chiqadigan "Shu'lai inqilob" ("Inqilob shu'lasi"), "Bolalar yo'ldoshi", "Tayoq" jurnallari va "Mehnatkashlar tovushi", "Zarafshon", "Hurriyat" gazetalarida maqolalari bilan ishtirok etadi. Birgina "Shu'lai inqilob" haftalik jurnalida Ayniyning "Sin Mim", "Qof-Sin", "Sin Xo", "Sin", "Xo", "Sin Qof", "Sod Ayn" hamda "Sod Ayniy" imzosi bilan 67 ta maqolasi, 30 dan ortiq she'r va maqolalari chop etilgan. Ayniy "Tayoq" jurnali, "Mehnatkashlar tovushi" gazetasi va boshqa matbuot nashrlarida "Sarson", "Furtakigo'y", "Tolesiz", "Azg'ich", "Tayoq", "Zimg'oyib", "Buzina", "Battol", "Ro'zador" kabi imzo va taxalluslar bilan hajviy she'rlar hamda maqolalar chop ettirgan.

Davlat va jamoat ishlari bilan bir vaqtda Sadriddin Ayniy ijod va tarjima ishlari bilan shug'ullangan. 1921-yili Abdulmo'min Sattoriy (o'lkashunos olim, 1925-yil 23-iyulda sil kasalidan vafot etgan) Abu Tohirxojaning "Samariya" asarini fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan bo'lib, bu tarjima 1925-yili Ayniy tomonidan tahrir qilingan va nashrga tayyorlangan. Ayniy Sattoriy tarjimasiga ayrim tuzatishlar kiritish bilan birga, unga so'z boshi va zarur atamalarga izohlar ham yozgan. Ammo asar nashrga tayyorlanganicha qolib ketgan va hozirda Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda. Shuningdek, fransuz yozuvchisi Ferdinand Dyushenning "Hilol" ("Yangi chiqqan oy") asarini tarjima qilib, "Qamar" nomi bilan nashr ettirgan. Publitsist yozuvchi M.Bullening "Inqilobiy kurashlarda xotin-qizlar" va Viktor Gyugoning "Sehrli saroy" asarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Sadriddin Ayniy "Buxoro mang'it amirligining tarixi" (1921), Buxoro jallodlari" (1922), "Odina", "Qiz bola yoki Xolida" (1924), "Tojik adabiyotidan namunalar" (1926), "Qul bobo yoki ikki ozod" (1928), "Doxunda" (1927-1929, tojik tilida) "Qullar" (1934, o'zbek tilida), "Firdavsiy va uning "Shohnoma"si haqida" (1934), "Eski maktab" (1935), "Sudxo'ring o'limi" (1939), Shayxurrais Abu Ali ibn Sino" (1939), "Ustod Rudakiy" (1940), "Shayx Muslihiddin Sa'diy Sheroziy" (1942), "Alisher Navoiy" (1948), to'rt qismdan iborat "Esdaliklar" (1949-1954) kabi ilmiy va badiiy asarlar yaratgan.

Oilasi Samarqandlik jadid Vadud Mahmudning singlisiga uylangan. Bir qiz va bir o'g'li bo'lgan: Xolida va Kamol.

O'limi Iste'dodli adib, shoir va olim Sadriddin Ayniy 1954-yil 15-iyunda Dushanbe shahrida 76 yoshida vafot etgan.

**source:**

*"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati*

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/manaviyat/ajdodlarga-ehtirom/sadriddin-ayniy>